



## Hozirgi adabiy jarayonda dramaturgiya va inson ruhiyati talqini (Erkin A'zam ning “Jannat o‘zi qaydadir” dramasi misolida)

**Yoqubova Zebuniso Yorqinjon Qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti  
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy jarayonida dramaturgiya janrining rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Erkin A'zam ning “Jannat o‘zi qaydadir” dramasi misolida zamonaviy dramaturgiyada inson ruhiyati, ma’naviy izlanishlar, ijtimoiy ziddiyatlar va Vatan tushunchasining badiiy talqini yoritiladi. Asardagi obrazlar tizimi, dramatik konflikt va psixologizm elementlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, dramada aks etgan ikki davr — sovet va mustaqillik davri o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar hamda insonning o‘zligini anglash muammolari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida mazkur drama zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasining muhim namunalaridan biri ekanligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** dramaturgiya, zamonaviy adabiy jarayon, Erkin A'zam, “Jannat o‘zi qaydadir”, konflikt, psixologizm, obraz, Vatan, ma’naviyat, ijtimoiy ziddiyat, jannat timsoli, badiiy talqin.

**Аннотация:** В данной статье анализируются особенности развития драматургии в современном узбекском литературном процессе. В частности, на примере драмы Erkin A'zam «Где же находится рай?» рассматриваются вопросы художественного осмысления внутреннего мира человека, духовных поисков, социальных противоречий и понятия Родины в современной драматургии. В статье научно анализируются система образов, драматический конфликт и элементы психологизма в произведении. Также раскрываются противоречия между двумя эпохами — советским и периодом независимости, а также проблема самопознания личности. В результате исследования обосновывается, что данная драма является одним из значимых образцов современной узбекской драматургии.

**Ключевые слова:** драматургия, современный литературный процесс, Erkin A'zam, «Где же находится рай?», конфликт, психологизм, образ, Родина, духовность, социальные противоречия, символ рая, художественная интерпретация.

**Abstract:** This article analyzes the development features of dramaturgy in the modern Uzbek literary process. In particular, based on the drama “Where is Paradise?” by Erkin A'zam, the study explores the artistic interpretation of human inner world, spiritual quests, social conflicts, and the concept of homeland in contemporary dramaturgy. The system of characters, dramatic conflict, and elements of psychologism in the work are examined from a scholarly perspective. The article also reveals the contradictions between two periods — the Soviet era and the years of independence —

as well as the problem of self-identity. The research concludes that this drama is one of the significant examples of modern Uzbek dramaturgy.

**Keywords:** dramaturgy, modern literary process, Erkin A'zam, “Where is Paradise?”, conflict, psychologism, character, homeland, spirituality, social contradictions, symbol of paradise, artistic interpretation.

**Kirish:** Dramatik tur o‘zbek adabiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u jamiyat hayotini, inson ruhiyatini va ijtimoiy munosabatlarni sahna orqali ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi jadidchilik davriga borib taqaladi va uning ilk namunasi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy ning “Padarkush” dramasi e’tirof etiladi. Shundan buyon dramaturgiya bir asrdan ortiq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Ammo bu rivojlanish har doim ham bir maromda kechmadi. Xususan, o‘tgan asrning 70–80-yillaridagi “turg‘unlik davri” hamda mustaqillikning dastlabki yillarida dramaturgiya boshqa adabiy turlarga nisbatan sustlashdi. Bunga dramaturglar sonining kamligi, sahnalashtirish muammolari, tomoshabin e’tiborini jalb etishdagi qiyinchiliklar hamda iqtisodiy omillar sabab bo‘ldi.

Shunga qaramay, so‘nggi yillarda o‘zbek dramaturgiyasida muayyan yangilanish jarayoni kuzatilmoqda. Zamonaviy asarlarda inson ruhiyati, ichki kechinmalar, ma’naviy izlanishlar va ijtimoiy ziddiyatlar chuqurroq yoritilmoqda. Bu esa dramaturgiyani nafaqat sahna asari, balki falsafiy va psixologik tahlil vositasiga aylantirmoqda.

Ana shunday jarayonda Erkin A'zam ning “Jannat o‘zi qaydadir” dramasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda zamonaviy jamiyat muammolari, insonning o‘zligini anglash jarayoni, moddiy va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar badiiy talqin etilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — mazkur drama misolida hozirgi adabiy jarayonda dramaturgiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, undagi obrazlar tizimi, dramatik konflikt va psixologik tasvir vositalarini ochib berishdan iborat.

**Asosiy qism:** Erkin A'zam ning “Jannat o‘zi qaydadir” dramasi zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasining eng muhim va o‘ziga xos namunalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda bugungi jamiyat hayotida yuz berayotgan murakkab ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlar chuqur badiiy tahlil qilinadi. Muallif inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, qadriyatlar almashinuvi va ma’naviy izlanishlar orqali zamon muammolarini sahna ifodasiga aylantiradi.

Asarning kompozitsion tuzilishi murakkab ko‘p chiziqli voqealarga emas, balki bir oila doirasida kechadigan oddiy, lekin mazmunan juda chuqur voqealarga asoslangan. Shu sababli ushbu drama kamer xarakterdagi asar sifatida baholanadi. Biroq aynan shu kichik makon ichida butun bir jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy muammolari mujassamlashtirilgan bo‘lib, bu uning badiiy salmog‘ini yanada oshiradi.

Dramaning boshlang‘ich nuqtasida qahramonlar “yer yuzidagi jannat” tushunchasiga intilish kayfiyatida yashaydilar. Bu tushuncha asarda moddiy farovonlik, xorijiy hayot va boylik bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Voqealar Robiyaning xorijiy mamlakatlarga, xususan Birlashgan Arab Amirliklari kabi

davlatlarga borib kelishlari bilan boshlanadi. U savdo-sotiq orqali katta daromad topa boshlaydi va asta-sekin yangi hayot tarziga moslashadi. Natijada uning ongida moddiy boylik va imkoniyatlarga asoslangan yangi dunyoqarash shakllanadi.

Kapitalistik munosabatlar ta'sirida Robiya uchun moddiy manfaat hayotning asosiy mezoniga aylanadi. Shu jarayonda u oilasi bilan Amerikaga ko'chib ketish orzusiga beriladi. Muallif bu orqali zamonaviy jamiyatda moddiy qadriyatlarning ma'naviy qadriyatlardan ustun qo'yilishi muammosini keskin va badiiy ifodali tarzda ochib beradi. Insonning "jannat" haqidagi tasavvuri tashqi boylik bilan bog'lanib, ichki ma'naviy olamdan uzoqlashib boradi.

Asardagi asosiy dramatik konflikt Jo'raqul va Robiya obrazlari orqali ochib beriladi. Jo'raqul sovet davrida shakllangan, marksizm-leninizm g'oyalariga sodiq bo'lgan ziyoli sifatida tasvirlanadi. U universitetda faoliyat yuritib, jamiyatda ma'lum obro'ga ega bo'lgan, ilm va g'oyaga xizmat qilgan insondir. Biroq SSSRning parchalanishi va yangi ijtimoiy tuzumning shakllanishi uning hayotiy pozitsiyasini tubdan o'zgartiradi.

Yangi davr Jo'raqulni nafaqat jamiyatda, balki oilada ham ikkinchi darajaga tushiradi. Oila iqtisodiy jihatdan Robiya zimmasiga o'tadi va u oilaning asosiy tayanchiga aylanadi. Natijada er-xotin o'rtasida nafaqat oilaviy, balki chuqur dunyoqarash ziddiyatlari yuzaga keladi. Ular endi bir oilada yashasalar ham, ma'naviy jihatdan ikki xil olam vakillariga aylanib qoladilar.

Jo'raqul obrazi orqali muallif insonning o'z hayotini qayta tahlil qilish jarayonini chuqur ochib beradi. U umrini sarhisob qilar ekan, ko'plab xatolar qilganini anglaydi. Ayniqsa, farzandlarini milliy ildizlardan uzoqlashtirgan holda tarbiyalagani uni chuqur ruhiy iztirobga soladi. Bundan tashqari, uning ilmiy faoliyatida ham manfaatparastlik kuchayib, shogirdlari bilimni shaxsiy foyda vositasiga aylantirgani Jo'raqulni yanada yolg'izlikka olib keladi.

Asarda psixologik tasvir juda kuchli ifodalangan bo'lib, qahramonlarning ichki kechinmalari, ikkilanishlari va ruhiy kurashlari markaziy o'rinni egallaydi. Jo'raqul o'zini "bepoyon ummon ichida qolgan yolg'iz kema" sifatida tasavvur qiladi. Bu metafora uning hayotiy inqirozini, ma'naviy izlanishdagi adashuvini chuqur ochib beradi.

Dramada "jannat" va Vatan tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Robiya uchun jannat — bu moddiy farovonlik, xorijiy hayot va boylik dunyosi bo'lsa, Jo'raqul uchun haqiqiy jannat — Jiydali, ya'ni uning tug'ilgan vatani, ota-onasi xotirasi va milliy ildizlaridir. Shu tariqa asarda ma'naviy va moddiy qadriyatlar o'rtasidagi keskin ziddiyat ochib beriladi.

Jo'raqulning Jiydali bilan bog'liqligi asarda "ko'rinmas ip" metaforasi orqali ifodalanadi. Bu ip Vatan mehri, xotira va insonning ma'naviy ildizlarini anglatadi. U qanchalik uzoqlashmasin, baribir o'z Vataniga ruhiy jihatdan bog'liq bo'lib qoladi va oxir-oqibat shu bog'liqlik uning ichki qarorlarini belgilaydi.

Asarda Rahmatullo kabi obrazlar orqali esa Vatan tushunchasini faqat manfaat va moddiy foyda bilan bog'laydigan insonlar tanqid qilinadi. Ular uchun yashash joyi, milliylik yoki ma'naviy ildizlar muhim emas, balki faqat shaxsiy manfaat ustuvor hisoblanadi. Bu esa asarning g'oyaviy yo'nalishini yanada kuchaytiradi va muallif pozitsiyasini aniq ifodalaydi.

Jo‘raqulning Robiyaga yozgan xati esa asardagi eng kuchli badiiy vositalardan biri bo‘lib, unda qahramonning butun hayoti sarhisob qilinadi. U o‘zini aybdor deb biladi, o‘tmishdagi xatolarini tan oladi va ichki tazarru holatiga tushadi. Bu epizod orqali uning ma‘naviy uyg‘onishi, o‘z ildizlariga qaytish istagi va ruhiy poklanish jarayoni ochib beriladi.

Umuman olganda, asarda ikki qarama-qarshi dunyo — moddiy manfaatga asoslangan hayot va ma‘naviy qadriyatlarga tayangan hayot o‘rtasidagi keskin ziddiyat asosiy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. “Jannat o‘zi qaydadir” dramasida Vatan, insoniylik, ma‘naviyat va o‘zlikni anglash kabi ustuvor qadriyatlar markaziy o‘rinda turadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, Erkin A'zam ning “Jannat o‘zi qaydadir” dramasi zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasining muhim namunalaridan biri bo‘lib, unda insonning ma‘naviy olami, Vatan tuyg‘usi va moddiy manfaatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar chuqur ochib berilgan. Asarda ko‘tarilgan muammolar bugungi adabiy jarayon bilan ham chambarchas bog‘liq. Chunki hozirgi dramaturgiyada ham inson ruhiyati, globalizatsiya ta‘siri va qadriyatlar almashinuvi asosiy mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu jihatdan drama bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu sababli asar o‘quvchini o‘z hayotini tahlil qilishga, haqiqiy “jannat”ning moddiyatda emas, balki ma‘naviyat va Vatanga sadoqatda ekanini anglashga undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Y.Solijonov. "Hozirgi adabiy jarayon". T. "Innovatsiya-Ziyo".2020.
2. Matluba Isokova. "Dramaturg mahorati". T. 2021.
3. To‘laxo‘jayova.M., Qozoqboev. T. "Drama nazariyasi".T. Fan va texnologiyalar markazi.2014.
4. F. Abduvohidov. Dramaturgiya asoslari. T.; 2019.
5. Erkin A‘zam “Jannat o‘zi qaydadir”. “Sharq” Toshkent-2007.